

O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY ISH FAOLIYATI SOHASINING TARIXIY ILDIZLARI VA ZAMONAVIY HOLATI

Ibrohomov Jasurbek Akmal o'g'li

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20260119>

Annotatsiya. O'zbekistonda ijtimoiy ish faoliyati sohasining tarixiy ildizlari va zamonaviy holati tahlil qilinadi. Ijtimoiy yordam va qo'llab-quvvatlash tizimining qadimiy an'analar, milliy qadriyatlar hamda diniy-ma'rifiy qarashlar asosida shakllanish jarayoni o'rganilgan. Shuningdek, mustaqillik yillarida ijtimoiy ish faoliyatining rivojlanishi, uning huquqiy-me'yoriy asoslari va jamiyatdagi ahamiyati tahlil etiladi. Muallif ijtimoiy ish sohasining aholining ijtimoiy himoyasi, inson manfaatlarini ta'minlash hamda jamiyat barqarorligini mustahkamlashdagi o'rni va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asoslab beradi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ish, ijtimoiy himoya, ijtimoiy xizmatlar, milliy qadriyatlar, ijtimoiy yordam, xayriya an'analari, aholini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy siyosat, jamiyat barqarorligi, inson manfaatlari.

Аннотация. В статье анализируются исторические корни и современное состояние сферы социальной работы в Узбекистане. Исследуется процесс формирования системы социальной помощи и поддержки на основе древних традиций, национальных ценностей, а также религиозно-просветительских взглядов. Также рассматриваются развитие социальной работы в годы независимости, её нормативно-правовые основы и значение в жизни общества. Автор научно обосновывает роль социальной работы в обеспечении социальной защиты населения, защите интересов человека и укреплении стабильности общества, а также современные тенденции развития данной сферы.

Ключевые слова: социальная работа, социальная защита, социальные услуги, национальные ценности, социальная помощь, благотворительные традиции, поддержка населения, социальная политика, стабильность общества, интересы человека.

Abstract. his article analyzes the historical roots and current state of social work in Uzbekistan. The process of forming the system of social assistance and support based on ancient traditions, national values, and religious-educational views is examined. The article also discusses the development of social work during the years of independence, its legal and regulatory foundations, and its significance in society. The author scientifically substantiates the role of social work in ensuring social protection of the population, safeguarding human interests, strengthening social stability, as well as the modern development trends of this field.

Keywords: social work, social protection, social services, national values, social assistance, charitable traditions, public support, social policy, social stability, human interests.

O'tish davrining tamoyillaridan biri-kuchli ijtimoiy siyosat ijtimoiy sohani har tomonlama rivojlantirishni taqozo etadi. Shuning uchun bu soha davlatning alohida e'tibori va nazoratida bo'ladi. Yurtimizda har bir ijtimoiy sohasida avvalo oiladan, bolalardan boshlanadi. - deydi - shu bois oila va mafkura tushunchalari chambarchas bog'liqdir. Oilaning jamiyatdagi o'rni, tarbiyaviy va ahloqiy ahamiyati qadr-qimmatini anglab yetmasdan, oilaga millat manfaati nuqtai-nazaridan yondoshmasdan turib xalqchil mafkura yarata olmaymiz¹.

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – provard maqsadimiz. T.8.-

Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilish, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhga ko'maklashish ijtimoiy ishning negizini tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy ish sohasini yanada chuqur va mukammal o'rganishga da'vat etadi.

Jamiyatimiz uchun yangi bo'lgan ixtisoslik va professional faoliyat hisoblangan ijtimoiy ishning shakllanishi, uni nazariy jihatdan anglashga nisbatan dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Professional faoliyatning bir turi sifatida ijtimoiy ish va xizmat bir asrdan ziyod tarixi davrida ulkan imperik materiallar to'pladi. Ijtimoiy ish sohasi tarixini o'rganish, uni nazariy tushunish, umumlashtirish va tizimlashtirish uning samarasini va natijaviyligini oshirish respublikamiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi uchun yangi istiqbollarni ochishi shubhasizdir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi I.A.Karimov «Bizning bosh strategik maqsadimiz qat'iy va o'zgarimas bo'lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat»² deydilar shuni o'ziyiq jamiyatimizda ijtimoiy ishning nechog'lik zarur ekanligini bildiradi.

Respublika hukumati ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish va uni xalqaro andozalar darajasiga ko'tarishga harakat qilmoqda. Bu o'z navbatida professional kadrlarni talab etadi.

Ijtimoiy ishini professional kasbiy faoliyat darajaga ko'tarish maqsadida 2004-2005 o'quv yilida Toshkent Davlat Madaniyat (hozirgi Toshkent davlat San'at va Madaniyat instituti) institutida "Ijtimoiy ish" ixtisosligi bo'yicha mutaxassis tayyorlaydigan bo'lim ochildi.³ 2005-2006 o'quv yilidan boshlab esa shunday bo'limlar Samarqand Davlat universiteti va Farg'ona Davlat universitetida ham ish boshladi. 2010-2011 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Milliy universitetida ham "ijtimoiy ish" ta'lim yo'nalishlari ochildi.

Ijtimoiy ish - bu odamlarga insonlar orasidagi munosabatlarni hal qilish va jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarda ko'maklashishga yo'naltirilgan, ularning hayotiy farovonligini oshirish maqsadida yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha kasbiy faoliyatdir.

Ijtimoiy ish keng ma'noda ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy yordamning o'ziga xos modelidir. Uni jamiyat aniq bir tarixiy davrda ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining xususiyatlariga mos ravishda ro'yobga chiqaradi. Tor ma'noda esa ijtimoiy ish ijtimoiy zaruriy faoliyat bo'lib, odamlar, ijtimoiy guruhlarga shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga qaratilgan. Ijtimoiy ish xodimlari Milliy Assotsiatsiyasi tomonidan qabul qilingan Axloq Kodeksi shunday hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjatning ko'p bo'limlari induvidial xulq-atvoriga, masalan konfidentsiallikka amal qilish mijoz bilan shaxsiy aloqadorlik tamoyili va boshqalarga taluqli bo'lsa, boshqa bo'limlari inson huquqlari bilan ishlashga taluqli ko'plab misollarni o'zida mujassamlashtiradi. AQShdagi ijtimoiy ish xodimlarining katta qismi mazkur Kodeksdan qo'llanma sifatida foydalanadilar. Ushbu Kodeks ularga o'z kasblarini inson huquqlari bilan bog'lashda boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi.⁴ Kodeksni insonning mos huquqlariga amal qilishga nibatan qo'llab, AQShda ijtimoiy ish xodimlari o'z kasblarining asosiy vazifasini bajaradilar. Kodeksda aks etgan bo'limlar ijtimoiy ish xodimlarini o'z mijozlarning huquqlariga amal qilishga chaqiradi.

Fuqarolik jamiyati – bu qonun ustuvorligi qiladigan; inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalashni ta'minlanadigan, shaxsning rivojlanishi va o'zligini

² Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: O'zbekiston. 2000. 8-jild. - B-331.

³ Ijtimoiy ish etikasi Darslik – T: "Fan va texnologiya", – 2015

⁴ Ijtimoiy ish etikasi Darslik – T: "Fan va texnologiya", 2015, 432-bet

namoyon qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan; aholinig keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanidigan mustaqil va barqaror institutlar amal qiladigan ijtimoiy makondir”.

Ijtimoiy siyosiy asos – mustaqil davlatlarning tashkil topishi, iqtisodiy va siyosiy hokimiyatning ajratilishi. Insonlarning o'z maqsadlarini himoya qilish maqsadida ma'lum tashkilotlarga birlashishi, hokimiyatlar turli-tuman markazlar, tashkilotlar, siyosiy institutlar qo'lida jamlangan bo'lsa, ular bir-birini cheklaydi va muvozanatga solib turadi. Siyosiy plyuralizm, davlat hokimiyati funksiyalarining sekin-asta fuqarolik jamiyati institutlariga berib borilishi. “Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” tamoyilining namoyon bo'lishi.⁵ Birinchi prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek, “Fuqarolik jamiyati qurish bir qancha vakolatli vazifalarni davlatdan mahalliy hokimiyat organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirishni ko'zda tutadi”.⁶

Fuqarolik jamiyatining amalda yuzaga kelishiga huquqlar haqidagi bill (Angliya, 1689 y.; AQSh, 1791 y.)⁷ yoki Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (Fransiya, 1789 y.)⁸ ning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Fuqarolik jamiyati – o'z shaxsi, ijodiy tashabbusini erkin namoyon etuvchi teng huquqli odamlar jamiyati, ortiqcha taqiqlar va keraksiz ma'muriy tartibga solishdan xoli teng imkoniyatlar jamiyati sifatida shakllandi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev “Mustaqil taraqqiyot yillarida Konstitutsiyamiz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etish, O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda” .⁹ Ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va faol amaliyotga tadbiiq etilayotgan “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi” xalqimiz hayot darajasini yuksaltirishning aniq mexanizmlari belgilab berilganligi mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining yangi bosqichi sifatida e'tirof etilmoqda Ijtimoiy ish paydo bo'lgan davrdan boshlab bu ish bilan pedogoglar, psixologlar, tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislar shug'ullandilar, ijtimoiy ish faoliyati turli ilm sohalari tutashgan joyda yuzaga keladi. Ijtimoiy ish faoliyati psixologlar, sotsiologlar, pedagoglar, tibbiyotlar xodimlari, huquqshunoslar, faylasuflar, shuningdek, ehtiyojmandlarga yordam ko'rsatishning turli jihatlarini tadqiq qiladigan boshqa soha vakillari sa'y-harakati tufayli yuzaga keladi.

Tarixan ijtimoiy ish insonlar va insonlar guruhlarini o'rtasidagi adolatsizliklar bilan ishlashga to'g'ri kelgan. Ijtimoiy ish insonparvarlik va demokratik g'oyalari asosida rivojlandiki, ularga amal qilish, uni kamsitishlar va resurslarning adolatsiz taqsimotiga qarshi kurash sari boshlaydi. Mazkur asosiy jihat adolatsizlikka qarshi kurash va demokratik g'oyalarni ilgari surish ijtimoiy ish xodimi Axloq Kodeksining bir qismini tashkil etadi. Ijtimoiy ish insonga ham, uning ehtiyojlari qondirishga atrofda gilarining muhim amaliyot kasb etishini e'tiborga olgan xolda atrofda gilariga ham yo'naltirilgan bo'ladi. Ijtimoiy ish xodimlari nafaqat alohida odamlarga ko'mak beradi, balki kengroq, global darajada ham o'zgarishlar yasashga intiladilar.

⁵ Birinchi prezidentimiz Karimov I.A. Yuksakma'naviyat - yengilmas kuch. T.-Ma'naviyat. 2008.

⁶ Birinchi prezidentimiz Karimov I.A. O'zbekistonmustaqillikka erishish ostonasida. T. - O'zbekiston. 2011.

⁷ Fuqarolik jamiyatining amalda yuzaga kelishiga huquqlar haqidagi bill (Angliya, 1689 y.; AQSh, 1791 y.)

⁸ Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (Fransiya, 1789 y.)

⁹ O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi 07-12-2016.-Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. -48 b.

Respublikamizda olib borilayotgan demokratik huquqiy davlat barpo etish siyosati o'z navbatida ijtimoiy ishchi xodimlariga bo'lgan talabni yuzaga keltiradi va buning mobaynida bu soha vakillariga bir qator masuliyatli vazifalarni yuklaydi. Bunday vazifalarga quyidagilarni misol tariqasida ko'rsatish mumkin:

- ijtimoiy ish xodimlarining halol va madaniyatli inson bo'lishligining zarurligi;
- himoyasidagi insonlarni millati, irqidan va dinidan qat'iy nazar barchasini baravar ko'rib muomalaga kirish;
- ijtimoiy ish xodimi madaniyatining tamoyillariga amal qilish;
- ijtimoiy ish xodimning qanday vaziyat bo'lishidan qattiy nazar, insonparvarlik xususiyatlarini amalga oshirishga kuch va g'ayrat topishligi;
- ayniqsa mustaqil ravishda o'zini o'zi ximoya qilishga qodir bo'lmagan odamlarni, masalan, ishchi layoqatsiz bolalar va yoshlar hamda aqliy taraqqiyoti buzilgan yoki sekinlashgan kishilarni qabul qilingan ma'naviy sog'lom qonunchilik doirasida ximoyalashga doir ish olib borish;
- turli etnik guruxlar va jamiyatdagi insonni asosiy huquqlariga qarama-qarshi bo'lmagan an'analar, madaniyatlar, mafkuralar, e'tiqodlar va fanlarni hurmat qilish va ularga yordam berish.

Yuqorida qayd etilgan maqsadlarning barchasi ijtimoiy ish kasbining zaruriy omillari sanaladi va bu kasbning egasidan vijdonan yondashishlik talab qilinadi. Ushbu soha vakillarini respublikamizda mavjud huquqiy-me'yoriy xujjatlar ham qo'llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – provard maqsadimiz. T.8.-
2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: O'zbekiston. 2000. 8-jild. -B-331.
3. Ijtimoiy ish etikasi Darslik – T “Fan va texnologiya”, – 2015
4. Ijtimoiy ish etikasi Darslik – T: “Fan va texnologiya”, 2015, 432-bet
5. Birinchi prezidentimiz Karimov I.A. Yuksakma'naviyat - yengilmas kuch. T.-Ma'naviyat. 2008.
6. Fuqarolik jamiyatining amalda yuzaga kelishiga huquqlar haqidagi bill (Angliya, 1689 y.; AQSh, 1791 y.)
7. Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (Fransiya, 1789 y.)
8. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi 07-12-2016.-Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. -48 b.